


"#DEAL_NUMBER"- sonli Oldi-sotdi shartnomasi

#PROTOCOL_DATE dagi "#PROTOCOL_NUMBER"- sonli savdo bayonnomasi asosida



1. Bitim Taraflari.

Sotuvchi:	Sotib oluvchi:
<p><u>Sotuvchining rekvizitlari</u> Sotuvchi nomidan va uning topshirig'i bo'yicha Brokerlik idorasi raqami: 1571 Brokerlik idorasi nomi: "O zbkneftegaz" AJ Topshiriq shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi treydemning F.I.Sh.: xxxxxxxxxx xxxxxxxx xxxxxxxxxxxxxx Tizimdagi buyurtma raqami: xxxxxxxx</p> <p>Nomi: SHURTAN GAZ KIMYO MAJMUASI MCHJ Manzili: Кашкадарьинская область Гузарский район Шуртон кургони Telefon raqamlari: 99875 2210227 Faks: 99875 5524016 STIR: 203195074 Hisobraqami: xxxx xxxx xxxx xxxx Bank: УзПСБ г.Ташкент опер упр MFO: xxxxx OKONX: xxxxx FSHR: xxxxx IFUT: FSHR:</p>	<p><u>Sotib oluvchining rekvizitlari</u> Sotib oluvchi nomidan va uning topshirig'i bo'yicha Brokerlik idorasi raqami: #BKB Brokerlik idorasi nomi: #BKB_NAME Topshiriq shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi treydemning F.I.Sh.: #TRADER_BUYER_NAME Tizimdagi buyurtma raqami: #ORD_BUYER</p> <p>Nomi: #CLB_NAME Manzili: #CLB_ADDRESS Telefon raqamlari: #CLB_PHONE Faks: STIR: #CLB_INN Hisobraqami: #CLB_ACCOUNT Bank: #CLB_BANK_NAME MFO: #CLB_MFO OKONX: #CLB_OKED FSHR: #CLB_RKP IFUT: FSHR:</p>
<p>Bitim bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun rekvizitlar: "O'zRTXB" AJ Manzili: Toshkent sh., Bobur ko'chasi, 77. STIR: 200933985, MFO: 00491, "Trastbank" XAB Telefon raqami: 71 207-00-33, Faks: 71 207-33-19</p>	<p>Hisobraqami: 20208000300600257009</p>

2. Shartnoma predmeti.

2.1. Birgalikda "Taraflar" deb nomlanuvchi Sotuvchi va Sotib oluvchi, elektron birja savdolari natijalari bo'yicha #PROTOCOL_DATE dagi "#PROTOCOL_NUMBER" - sonli savdo bayonnomasi asosida Sotib oluvchi quyidagi tovar uchun haq to'lashi va qabul qilib olishi, Sotuvchi esa ushbu tovarni yetkazib berishi to'g'risida mazkurshartnomani tuzdilar:

Tovarning nomi:

Сера техническая, гранулированная, газовая, ООО "Шурган ГХК"

Kontrakt raqami	O'lchov birligi	Birlik miqdori	Birlik uchun narx	Birlik uchun boshlang'ich narx	Lot uchun narx	Lot uchun boshlang'ich narx	Shartnoma summasi	Valuta	Qadoqlash turi
552	тонна	xxxx	xxxxxxxxxx	xxxxxxxxxx	xxxxxxxxxx	xxxxxxxxxx	xxxxxxxxxx	сум	ПЭТ мешки по 50кг
Sotuvchi uchun vositachilik yig'imi					Sotib oluvchi uchun vositachilik yig'imi				
xxxx					xxxx				

3. To'lov muddatlari, yuklash kunini tanlash, yetkazib berish shartlari va muddatlari.

- Sotib oluvchi shartnoma birjada ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 5 ish kuni mobaynida tovar uchun haq to'laydi.
- Sotib oluvchi tomonidan yuqori likvidli va (yoki) monopol turdagi mahsulotlarni yuklash kunini tanlash uchun. Sotuvchi – monopol va davlat ulushi mavjud tashkilotlar birjani rasmiy veb-saytiga tovarlarni yuklash grafisini kunlarga taqsimlagan holda joylashtirish kerak.
- Sotib oluvchi tovar uchun to'lovni amalga oshirgandan so'ng 3.4-bandda ko'rsatilgan muddatlar doirasida shaxsiy kabinet orqali monopol va davlat ulushi mavjud tashkilotlarning yuqori likvidli va (yoki) monopol turdagi mahsulotlari, bo'yicha o'zi uchun maqul bo'lgan yuklash kunini 3.2-bandda keltirilgan yuklash grafigi asosida tanlaydi.
- Sotuvchi tovarlarni asosiy yetkazib berish shartlari bo'yicha 22 ish kunlari davomida, birjada bitim uchun 100% to'laganidan keyin yetkazib beradi.
- Elektron logistika savdo portalidan shaxsiy kabinetga tushgan (avtotransport vositalari uchun ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgisi va boshqa) ma'lumotlar monopol va davlat ulushi mavjud tashkilotlarning yuqori likvidli va yoki monopol turdagi mahsulotlarini yuklash uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi mamlakat

Узбекистан

Mahsulot joylashgan manzil

EXW

Asosiy yetkazib berish shartlari

Кашкадарьинская обл

Lotdagi miqdor (o'lchov birligida)

1

Alohida shartlar

- Bitim ijrosini ta'minlash maqsadida tomonlar "O'zRTXB" AJ hisob-kitob kliring palatasidagi (keyingi o'rinlarda - HKKP) "O'zRTXB" AJga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi ikkilamchi depozit hisobvarag'iga quyidagi miqdorda depozit qo'ydi:
Sotuvchi:birja savdolariga (savdo kuni) qo'yilgan mahsulotlarning umumiy qiymatining 10 foizi.
Sotib oluvchi: taklif qilingan savdo hajmining 10 foizi.
Kafolat vositalariga quyidagilar kiradi:
- birja foydasiga ushbu shartnomani bajarish uchun birja savdolarining elektron tizimida tasdiqlangan tariflarga muvofiq miqdorda vositachilik komissiya yig'imi ushlab qolinadi.
- tomonlar tomonidan shartnomani tuzish va bajarilishini ta'minlash uchun kiritilgan moliyaviy depozit.
- Sotib oluvchidan ushbu shartnoma bo'yicha mablag to'liq qabul qilinganidan keyin bir ish kuni ichida HKKP sotuvchiga (yoki sotuvchining brokeriga) to'langan bitimlar reestrini yuboradi va reestrda belgilangan mahsulot hajmida tovarlar uchun to'lovni kafolatlaydi.
- HKKP tomonidan Sotuvchiga to'lovlar amalga oshirilgan bitim reestrining yuborilishi, monopol va davlat ulushi mavjud tashkilotlarning yuqori likvidli va (yoki) monopol turdagi mahsulotlari uchun esa elektron logistika savdo portalidan shaxsiy kabinetga tushgan ma'lumotlar, Sotuvchiga mazkur Shartnomada belgilangan hajmda va muddatda tovarni yetkazib berish majburiyatini yuklaydi.
Yetkazib berishni tashkillashtirish uchun Sotuvchi shartnomada ko'rsatilgan yetkazib berish muddatida, ammo mazkur muddat tugashidan kamida 3 ish kun oldin Sotib oluvchiga tovarlarni topshirish uchun tayyorligi to'g'risida, tovar yuklab jo'natiladigan kun (kunlar)ni ko'rsatgan holda xabarmoma yo'llaydi, monopol va davlat ulushi mavjud tashkilotlarning yuqori likvidli va (yoki) monopol turdagi mahsulotlari bundan mustasno.
Sotuvchi tomonidan tayinlangan tovar yuklab jo'natiladigan kuni Sotib oluvchi, zarur hollarda, o'z vakili ishtirokini ta'minlashi va agar birja shartnomasi shartlari bilan tovarning Sotib oluvchi transport vositasida yuklab jo'natilishi nazarda tutilgan bo'lsa – bunday transport vositasi bo'lishini ta'minlashi shart.

3.9. Sotib oluvchi vakili o'rnatilgan vaqtda yetib kelgandan so'ng, Sotuvchi zudlik bilan, Sotib oluvchi vakili omborga kelganligini uning moddiy qimmatlik mahsulotlar olish uchun ishinchomasiga belgi (muxr yoki tamg'a) qo'yib berishi yo'li orqali tasdiqlashga majbur. Sotib oluvchi vakilida shartnomada ko'zda tutilgan, mahsulotni yuklash uchun zarur bo'lgan hujjatlar bo'lmagan taqdirda (to'liq yoki qisman), Sotuvchi yetishmayotgan hujjatlarni ko'rsatgan holda yozma belgi kiritishi lozim.

Sotuvchi – monopoli va davlat ulushi mavjud tashkilotlar shu bilan birga avtotransport vositasini ro'yxatga olish ma'lumotlarini elektron logistika savdo portalidan shaxsiy kabinetga tushgan ma'lumotlar bilan muvofiqligini tekshiradilar.

3.10. Sotuvchi tomonidan tovarlarni yetkazib berganligi va uni Sotib oluvchi tomonidan tanlab olinganligini faktini yetkazib berish hujjati nusxasi (yuk varaqasi) yoki Sotib oluvchi va sotuvchi tomonidan imzolangan hisob-fakturaning nusxasi tasdiqlaydi. Tovarlarini temir yo'l orqali jo'natishda Sotuvchi tomonidan tovarlarni yetkazib berilganligini va uni Sotib oluvchi tomonidan tanlab olinganligini faktini jo'natuvchining stantsiyasi muhri tushirilgan temir yo'l hisob – fakturasining nusxasi va broker-sotuvchining imzosi va muhrlari bilan tasdiqlangan hisob-fakturaning ilova qilingan nusxasi tasdiqlaydi. Yuk tashish hujjatlari sotuvchining brokeri tomonidan HKKPda tovarlar jo'natilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiktirmay, lekin bitimda ko'zda tutilgan yetkazib berishning oxirgi kundan keyingi kundan kechiktirmay taqdim etiladi.

3.11. Tovar yuklab jo'natilganligini tasdiqlaydigan hujjatlar taqdim qilinishi HKKP uchun Sotuvchi tomonidan bajarilgan majburiyatlar hisobiga mablag'lar o'tkazishga asos va majburiyat bo'lib xizmat qiladi. Sotuvchi tomonidan tovar yuklab jo'natilganligini tasdiqlaydigan hujjatlar (YEBHR) taqdim qilingan vaqtdan boshlab 1 ish kuni mobaynida HKKPning talab qilib olinguncha ikkilamchi depozit hisobraqamidan Sotuvchining bankdagi hisobraqamiga o'tkazadi.

Sotuvchi HKKP tomonidan to'lov amalga oshirilgan bitimlar reestri monopoli va davlat ishtirokidagi tashkilotlar uchun elektron logistika savdo portalidan ma'lumotlar taqdim etilmasdan tovar yetkazib bergan taqdirda, tovar uchun to'lovni amalga oshirish tavakkalchiligi sotuvchining zimmasida bo'ladi.

3.12. Shartnomaning 3.2, 3.3, 3.5, 3.8, 3.9, 3.12 bandlarida keltirilgan alohida shartlar monopoli va davlat ulushi mavjud tashkilotlarning yuqori likvidli va (yoki) monopoli turdagi mahsulotlarini avtotransportda yuklashga nisbatan tadbiq etiladi.

4. Birja bitimlarining yopilishi.

4.1. Birja bitimi HKKP tomonidan yopiladi va birjaning majburiyatlar bajarilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari quyidagi holatlarda bitimlar yopilishi orqali bekor bo'ladi:

- Sotuvchi yoki unga xizmat ko'rsatuvchi birja a'zosi tomonidan Sotuvchining tovarni to'liq hajmda yetkazib berish bo'yicha majburiyatlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinishi – tovarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida;

- har ikki Taraf tomonidan tovarni yetkazib berish (yuklab olib chiqish) bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida va o'zaro e'tirozlar mavjud emasligi to'g'risida ariza taqdim qilinishi – jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan, shartnomaning bekor qilinishi to'g'risidagi ariza taqdim qilingan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida;

- Sotuvchi tomonidan tovarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar va Sotib oluvchi tomonidan uning yuklab olib chiqilishi bo'yicha majburiyatlar tovarga xos bo'lgan va tovarni yuklab jo'natishda ushbu majburiyatlarning to'liq hajmda bajarilishiga to'sqinlik qiladigan texnologik yoki boshqa sabablarga ko'ra to'liq hajmda bajarilmaganligi, agar mazkur Shartnomaning alohida shartlari bilan Tarafning ushbu asoslarda javobgarlikdan ozod qilinishlari nazarda tutilgan bo'lsa – jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan, har ikki Taraf tomonidan bitimning yopilishi to'g'risidagi ariza taqdim qilingan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida;

- Tarafarga jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan, agarda shartnoma bilan belgilangan yetkazib berish muddati tugagan paytdan boshlab uch ish kuni mobaynida shartnoma tarafdari tovarni yetkazib berish (yuklab olib chiqish) bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi haqida tarafdarning bir-biriga e'tirozi mavjud bo'lmagan taqdirda;

- yetkazib berish muddati tugagandan so'ng, agar yuklab olib chiqilmagan / yuklab jo'natilmagan tovar summasi mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat pullari miqdoridan kam bo'lsa, jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan;

- Arbitraj komissiyasi tomonidan nizolarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qarori bilan.

4.2. Birja bitimi Taraf tomonidan Shartnomaning muddatidan oldin bekor qilinishi to'g'risida ariza taqdim qilinishi asosida yoxud mazkur Shartnoma bilan belgilangan yetkazib berish muddati tugagan paytdan boshlab uch ish kuni mobaynida e'tirozlar taqdim qilinmaganligi natijasida yopilgan taqdirda, Sotuvchi va Sotib oluvchi majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida ularning birjadagi shaxsiy hisob varaqlarida blokirovka qilingan moliyaviy mablag'lar boshqa birja bitimlari bo'yicha kafolatli ta'minot mablag'lari sifatida foydalanish uchun bo'shatiladi.

4.3. Tarafdarning mazkur Shartnoma majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro e'tirozlari Arbitraj komissiyasi tomonidan "Arbitraj komissiyasi to'g'risida"gi Nizomda nazarda tutilgan shartlarga rioya qilingan holda, mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan tovarni yetkazib berish muddati tugagan paytdan boshlab uch ish kundan kechiktirilmay qabul qilinadi.

Sotuvchi yoki Sotib oluvchi tomonidan arizalar mavjud emasligi yoxud ular tomonidan Arbitraj komissiyasiga ariza taqdim qilish muddatlariga rioya qilinmasligi mazkur Shartnoma majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro e'tirozlar mavjud emasligi sifatida baholanadi.

4.4. Taraf Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining bajarilishidan qat'iy nazar, birja foydasiga vositachilik yig'imlarini to'lashlari shart.

5. Tarafdarning javobgarligi.

5.1. Tarafdarning biri tomonidan mazkur Shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, HKKPda aybdor Tarafning shaxsiy hisobvarag'idagi pul mablag'laridan jarima undiriladi va mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat puli miqdoridagi summa zarar ko'rgan Taraf hisobiga o'tkaziladi, mazkur Shartnoma esa bekor qilingan hisoblanadi.

5.2. Tovar to'liq yetkazib berilmagan taqdirda, Sotuvchi Sotib oluvchiga HKKPda Sotuvchining shaxsiy hisob varag'idagi pul mablag'laridan mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat pullari miqdorida jarima to'laydi. Jarima to'lovi Sotuvchini tovar to'liq yetkazib berilmaganligi oqibatida yetkazilgan zararlar o'rmini qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.3. Yetkazib berilgan tovar standartlarga, texnik shartlarga, namunalarga (etalonlarga), sifati, turi va navga mansubligi bo'yicha boshqa majburiy shartlarga muvofiq bo'lmagan taqdirda, Sotib oluvchi qonunchilikda belgilangan tartibda tovarni qabul qilib olishdan bosh tortish, Sotuvchidan tegishli sifatga, turga va navga ega bo'lmagan tovar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olish yoki to'langan summalarning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega.

5.4. Mazkur Shartnoma bilan belgilangan yetkazib berish muddatida (davrida) tovar yuklab olib chiqilmaganligi uchun, shuningdek tovarni qabul qilib olishni asossiz rad qilganligi uchun Sotib oluvchi Sotuvchiga HKKPda shaxsiy hisobvarag'idagi pul mablag'laridan mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat pullari miqdorida jarima to'laydi. Jarima to'lovi Sotib oluvchini yuklab olib chiqilmagan (o'z muddatida qabul qilinmagan) tovarning kechiktirilishi oqibatida yetkazilgan zararlar o'rmini qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.5. Agar tovar maxsus qutilarda yetkazilishi yoki qadoqlanishi lozim bo'lsa va tovar qutilarsiz va/yoki qadoqlanmay yetkazilsa, sotib oluvchi qonunchilikda belgilangan tartibda Sotuvchidan mazkur tovarlar qiymatining 5% miqdorida jarima undirishga xaqli.

5.6. Brokerning mazkur Shartnomani imzolashdan va /yoki uni belgilangan muddatda ro'yxatdan o'tkazish uchun filial makleriga (savdo maydonchasi ro'yxatdan o'tkazuvchisiga) topshirishdan bosh tortganligi uchun Brokerdan Birja tomonidan belgilangan miqdorda jarima undiriladi.

5.7. HKKPdan to'langan bitimlar reestri olinmasdan Sotuvchi tomonidan mahsulotlar yuklab jo'natilgan taqdirda, Birja Sotib oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlar nohalol bajarilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

5.8. Shartnomaning 3.8-bandida qayd etilgan shartlar buzilgan taqdirda, Birja ehtimoldagi zararlar yuzaga kelganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

6. Nizolarni hal qilish.

6.1. Birja bitimi bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi bilan bog'liq nizolar birjaning Arbitraj komissiyasi yoki sud tomonidan hal qilinadi.

6.2. Taraf, O'zRTXB AJda Birja savdo qoidalariga muvofiq, Birja Arbitraj komissiyasining Taraf o'rtasida yuzaga kelgan va sifat bilan bog'liq bo'lmagan nizolarni ko'rib chiqish va qaror chiqarish huquqiga ega ekanligini e'tirof etadilar.

6.3. Arbitraj komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan taraf nizoni qonunda belgilangan tartibda hal qilish huquqiga ega.

7. Fors-major.

7.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi yengib bo'lmaydigan kuchlar, ya'ni favqulodda va bu holatda bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major), qonun hujjatlari qabul qilinishi yoki har qanday o'zgarishlari, dasturiy ta'minotning ishga yaroqsizligi yoki texnik sabablardan bo'yicha to'xtatib qo'yilish holatlari, elektr energiyasining o'zgaruvchanligi yoki uzib qo'yilishi oqibatida yuz bergan taqdirda, Taraf mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

8. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Mazkur Shartnomaning Sotuvchi brokeri va Sotib oluvchi brokeridagi nusxalari Birja filiali makleri (savdo maydoncha registratori) tomonidan rasmiylashtirilgan (imzolangan va tasdiqlangan) paytdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Shartnoma Sotuvchi brokeri va Sotib oluvchi brokeri uchun ikki nusxadan jami to'rt nusxada tuzildi, har bir nusxa bir xil yuridik kuchga ega. Sotuvchi brokeri va/yoki Sotib oluvchi brokeri nusxalari ro'yxatdan o'tkazilmagan taqdirda, mazkur Shartnoma tuzilmagan deb hisoblanadi.

Taraflar (vakolatli vakillari) imzolari:

Sotib oluvchi (Sotuvchi) nomidan va uning topshirig'i bo'yicha Broker <hr/> M.O'.	"O'zRTXB" AJ mazkur Shartnoma Birja savdolari elektron tizimida o'tkazilgan savdolar natijalari bo'yicha Sotuvchi va Sotib oluvchi o'rtasida tuzilganligini tasdiqlaydi. Makler "O'zRTXB" AJ _____ (filial makleri, savdo maydonchasi ro'yxatdan o'tkazuvchisi) M.O'.
---	---

HAAMVHEA

--	--

 СКАЧИВАЙТЕ НОВОЕ МОБИЛЬНОЕ ПРИЛОЖЕНИЕ UZEX  ЯНГИ МОБИЛ UZEX ИЛОВАСИНИ ЮКЛАБ ОЛИНГ 

НАМУНА